

TOG'AY MURODNING "OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ROMANIDA SUBKODLARDAN FOYDALANISH

Abduvohidova Dildora Fazliddin qizi,
O'zbekiston- Finlandiya pedagogik instituti talabasi
Erbutayeva Shalola Utkirovna,
ilmiy rahbar, O'zbekiston- Finlandiya pedagogik instuti katta o'qituvchisi
dildoraabduvohidova384@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada subkod termini va uning qanday qo'llanilishini xalqimizning zabardast vakillaridan bir bo'lmish Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar. Kod, subkod, sheva, jargon, adabiy til.

TOG'AY MUROD'UN "BABAMDAN KALAN TARLALAR" ROMANINDA ALT KODLARIN KULLANILMASI

Abduvohidova Dildora Fazliddin kizi,
O'zbekistan - Finlandiya pedagogi enstitüsü öğrencisi
Erbutayeva Shalola Utkirovna,
bilimsel danışman, O'zbekistan-Finlandiya pedagogi enstitüsü
kıdemli öğretim görevlisi

Özet. Bu makalede, "subkod" terimi ve onun nasıl kullanıldığını halkımızın önde gelen temsilcilerinden biri olan Tog'ay Murod'un "Babamdan Kalan Tarlalar" romanı üzerinden ele alıyoruz.

Anahtar kelimeler. Kod, subkod, ağız, jargon, edebi dil.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СУБКODOB В РОМАНЕ ТОГАЯ МУРОДА «ПОЛЯ, ОСТАВШИЕСЯ ОТ ОТЦА»

Абдувахидова Дильдора Фазлиддин кызы,
студентка Узбекско-Финского педагогического института
Эрбутаева Шалола Уткировна,
научный руководитель, старший преподаватель
Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В этой статье мы рассмотрим термин «субкод» и его применение через роман «Отаман қалган далалар» одного из выдающихся представителей нашего народа Тогая Мурода.

Ключевые слова. Код, субкод, диалект, жаргон, литературный язык.

THE USE OF SUBCODES IN TOGAY MUROD'S NOVEL "FIELDS LEFT BY MY FATHER"

Abduvohidova Dildora Fazliddin qizi,
student of Uzbekistan-Finland pedagogical institute
Erbutayeva Shalola Utkirovna,
scientific advisor, senior lecturer of the Uzbekistan-Finland pedagogical institute

Abstract. In this article, we will examine the term "subcode" and its application in the novel *Otamdan qolgan dalalar* by Togay Murad, one of the prominent representatives of our nation.

Keywords. Code, subcode, dialect, jargon, literary language.

Milliy adabiyotimizning XX asr oxirgi choragi rivojida Tog'ay Murodning munosib o'rni bor. U ellik besh yillik hayoti, salkam o'ttiz yillik ijodiy faoliyati davomida bir necha hikoya, to'rt qissa ikki roman yaratdi, jahon adabiyotidan tarjimalar qildi, adabiy- tanqidiy maqolalar yozdi. Yozuvchi qoldirgan adabiy meros miqdor jihatdan U qadar ko'p emas. Ammo uning qissa va romanlari o'ziga xos badiiyati, til va ifoda tarzi, "adabiy aholi" safiga olib kirgan hech qaysi adibnikiga o'xshamaydigan tirik odamlari- personajlar bilan davr adabiyotida yorqin iz qoldirgan. Ilk romani "Otamdan qolgan dalalar" Tog'ay Murod ijodidagina emas, milliy adabiyotimiz tarixida muhim hodisa bo'ldi. Bu asarni yozishga kirishar ekan, yozuvchi o'zini, o'zining hayot haqidagi bilim, tasavvurlarini qayta tanqidiy taftishdan o'tkazadi. Shu paytga qadar amal qilgan ijodiy aqidalarga sodiq qolgan holda qishloq hayoti, oddiy odamlar turmushini o'zgacha nigoh bilan anglash yo'lini tutadi. [5]

Tilshunoslikda kod deganda lisoniy shakllar: til, hududiy yoki ijtimoiy dialektik, shahar konyesi tushuniladi. "Kod" termini bilan birga "subkod" termini ham ishlatiladi. Masalan, hozir o'zbek tilining subkodlari bu - adabiy til, ijtimoiy jargon, shahar (Toshkent) koynesi hisoblanadi. Subkod ham o'z navbatida turlarga bo'linib, tarkibiga quyidagicha subkodlari kiritish mumkin. Masalan, rus adabiy tili, milliy tilga nisbatan subkod bo'lgan holda ikki turga kodlashgan va so'zlashuv tiliga ajraladi. Bularidan har biri o'zining vazifasiga ko'ra bir-biridan farqlanadi: kodlashgan til nutqning adabiy shaklida, so'zlashuv tili esa nutqning kundalik o'g'zaki shaklida qo'llaniladi. O'z navbatida kodlashgan adabiy til ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy va boshqa uslublarga bo'linadi. Bunga o'xsha holat so'zlashuv tilida ham kuzatiladi. Rus sotsiolingvistikasida subkodlar ko'pincha til mavjudlik shakllari, g'arb sotsio-lingvistikasida registerlar deb har yuritiladi. Yuqoridagi ma'lumotlarga tayanib "Otamdan qolgan dalalar" romanidagi subkodlarni ko'rib chiqamiz. Dehqonqul tilidan aytilgan bobosi Jamoliddin ketmon tarifida "Bobomizda nima bo'ldi - ketmon bo'ladi. Ketmon emas - bir baloyi bad bo'ladi!. Bu yerda bad so'zi yomon ma'nosida qo'llanilgan. Yo'ldan o'tkich-ketkichlar bobomizga hormang etadi. Yani, o'tib-ketayotganlar ayotgan qo'shimchasi **-kich** shakilda qo'llanilgan. Saraton jingirtob- jingirtob kuydirmish bir mahal yo'ldan ajabtovur ovozlari eshitildi. Vo darig'o, shu ko'rinnish ajina bo'ldimi?. Yoki Jamoliddin ketmon bilan Salohiddin bo'yirchi nutqida ishlatilgan so'zlar. Bobomiz bo'yirchini gapga soladi. Sizdan oldin ashiyoqqa bir balo o'tdi, - deydi bobomiz. Ana u yerga so'zi ashiyoqqa qisqartirilgan shaklida asarda keltirilgan. Salohiddin bo'yirchi ariq o'ngida oyoq iladi. Oyoq ilmoq ya'ni o'sha yerga o'tirmoq. Salohiddin bo'yirchi shunday deya, yo'l bosh adog'iga qarab oladi. Adog'i - oxiri. Bobomiz, oldiga lik etib sanchib o'tadi. Boshqa shevalarda likkillamoq shaklida ham ishlatilgan holatlarni ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu gapda lik etib va sanchib o'tdi degan so'zlarga nazar tashlaydigan bo'lsak. Kishini bir qaraganda e'tiborini tortadigan holatni ko'ramiz. Gapning umumiy mazmunidan kelib chiqib tezlik va chaqqanlik bilan o'tirdi desak adashmagan bo'lamiz. Bobomiz qabatiga cho'kadi. Bu gapda qabati degan so'zga duch kelamiz. O'quvchida ba'zi tushunmovchilik holati ham bo'lishi mumkin. Chunki qabat so'zining asil ma'nosiga qaraydigan bo'lsak qavat, qatlam ma'nosini bildiradi. Ko'pincha narsalarning ustiga tushgan yoki joylashgan qismi haqida gap ketganda ishlatiladi. Bu gap qabatiga ya'ni yoniga o'tirdi ma'nosida qo'llangan. Mulla Oqposhsho bizni ololmaydi, deyatib edi- yu? Deyayotib -yotib -yatib yoki romanda qo'llangan "Bo'laman degich el, bir-birini botirim deydi, bo'lmayman degich el, bir-birini etini yeydi". Degan so'zi degich shaklida talaffuz qilingan. Chalajon oq lashkarlar tag'in daf' a qilibdi. Ha tavqi la'natlar! Toshkanniyam olibdimi-a? Toshkent so'zi Toshkan kent- kan tarzida insonlar nutqida qo'llanilgan. [15,18] Oqposhsho saharlayin Tashkanni bosibdi. Ila- bila, Qo'qongacha kelibdimi-?. Bobomiz chaparasta-chaparasta so'kadi. Bobomiz ohista- ohista tejaladi. Erkakzot Oqposhshoda asalli bir enlik lungi bo'lmaydi. Ayolzot Oqposhshoda mammalari osma qovunday- osma qovunday- osilib yotadi. [20]

Erkak va ayol soʻzlariga nima sababdan yozuvchi, zot qoʻshimchasini qoʻlladi degan savol kitobxonni xayolidan oʻtishi mumkin. Shunchaki erkak va ayol soʻzlarini qoʻllasa ham boʻlardi. Zot qoʻshimchasini qoʻllashdan maqsad nima degan savollar tugʻilishi mumkin. Zot qoʻshimchasi ot va sifat soʻzlariga qoʻshilib "lik"ga tegishli maʼnolarini bildiradi. Bu qoʻshimcha koʻpincha ilmiy va rasmiy uslubda uchraydi. Masalan: *Arabzot* (barcha arab millatiga mansub). *Shirinzot* (shirinlik bilan bogʻliq). *Insonzot* (barcha insonlar) Ushbu maʼlumotga tayangan holda erkakzot Oqqoshsho va ayolzot Oqqoshsho deganda Oqqoshsholar va u yerning aholisini yozuvchi zot qoʻshimchasi orqali ifolagan deyishimiz mumkin. Eshikogʻalar dang qotib qoladi. Otishlarini-da bilmaydi, otmasliklarini-da bilmaydi. Dong qotib soʻzi bu oʻrinda dang shaklida qoʻllangan. [24] . Biz asarda qoʻllanilgan maqollarni ham shaeva shaklida qoʻllanilishini koʻrishimiz mumkin. "Oʻttizda er atangan, qiriqida sher aylanar, deydilar . Taqsir, men bir kam saksonda. Atalgan va atalar soʻzlari atangan va atanar tarzida ifodalangan.[31] Asarda Dehqonqul tilidan aytilgan *oʻzbak* (oʻzbek), *shul* (shunday), *bola-baqra* (bola-chaqa), *qandaychikin* (qanday), *ulay-bulay* (unday-bunday), *elovrayapsanmi* (alabsilayapsanmi) *jigit* (yigit) va koʻplab shevaga oid soʻzlar ishlatishni koʻrishimiz mumkin. [34,48] .

Yuqorida keltirilgan shevaga oid turli xil soʻzlar asarning boshidan oxirigacha qoʻllanilgan. Biz asarni bir qarashda yoq sodda xalqona tarzida yozilgan desak adashmagan boʻlamiz. Togʻay Murod "Otamdan qolgan dalalar" romanida inson-larning qanday turmush sharoitida yashayotganligini, qanday davr va oʻsha davr ziddiyatlarini sodda xalq tilidan ochib bergan deb ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Togʻay Murod "Otamdan qolgan dalalar" romani. Zukko kitobxon nashriyot-matbaa uyi, 2022. – B 351.
2. Yusupova Orzibonu Sunnatovna. Sotsiolingvistika (Oʻquv qoʻllanma) Samarqand, SamDU nashriyot. – 2023. – B 234.
3. H.Dadaboyeva, Sh. Usmonova "Horijiy sotsiolingvistika 2014.
4. Zarif Aliqulov, Soat Boymirzayeva. Sotsiolingvistika. Maʼruzalar matni. Samarqand, SamDU nashri. - 2009. - B 108.
5. Sh. Usmanova va boshqalar . Sotsiolingvistika (oʻquv qoʻllanma) Toshkent, "Universitet" . - 2014. - B 85.